

FRAZELOGIYALASHGAN QURILMALARNING TASNIFI

A.Tursunov

SamDChTI stajyor-o'qituvchisi.

Tilshunos olim Sh.Balli til tizimi birliklarining stilistik xususiyatlarni bayon etib ilk bor "Umumiy lingvistika va fransuz tili masalalari" nomli monografiyasida "frazelogizm" atamasini qo'llaganidan bo'yon ilm-fan oldinga qarab shahdam qadamlar bilan rivojlanib bormoqda. Biroq hanuzgacha frazeolog olimlar frazeologiyalashgan strukturali gaplar to'g'risida biror-bir qat'iy qarorga kelib uning tasnifini yaratish uchun frazeologik birliklarning kategorial xususiyatlari to'g'risida aniq to'xtamga kela olishmadi.

Ushbu maqolamizda tilshunoslarning bu masalaga yondashuvlariga binoan, leksik va sintaktik sathdagi frazeologik birliklar bir-biridan farqlanadi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, sintaktik frazeologik birliklarning turlarini tizimlashtirishga harakat qilib, ularni tahlilga tortamiz.

Rus lingvistik an'anasiga ko'ra D.E.Rozental va M.A.Telenkova fikrlarida "frazelogizm" ilmiy atamasini bir so'zga teng bo'lgan hamda leksik o'z tuzilish va tarkibi jihatdan bo'linmas, ma'nosi yaxlit, tayyor nutq birligi ko'rinishida ishlab chiqilgan frazeologik birlik yoki frazeologik birikma sifatida talqin qilinadi (Rozental, 1985).

O'rganish jarayonida sintaktik frazeologiyalashgan birliklar turli nomlarga ega bo'lganligiga guvoh bo'lamiz: frazes yoki idiomalar, so'zlarning turg'un birikmalari, idiomalar, ajratib bo'lmaydigan so'z birikmalar, dialogik nutqning stereotipli jumalari, dialogik nutqning stasionar jumalari, frazeologizmlar, frazeologiyalashgan birliklar, qo'shib yozilgan so'zlar yoki iboralar.

Tilshunos olimlar fikrlari asosida frazeologiyalashgan strukturali gaplarning ba'zi tasniflarini batafsilroq ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Masalan, Z.R.Agleyevaning ta'kidlashicha, idiomatiklashgan konstruksiyalar bir nechta katta, formal-strukturaviy va semantik jihatdan farqlanuvchi qurilmalar guruhidan iborat. Olima frazeologiyalashgan strukturali gaplarning qo'yidagi tasnifni taklif qiladi:

1. Predikativlik mavjudligi/yo'qotishi xususiyati bo'yicha shunday deb nomlangan predikativ frazeologik komponentlar ajratiladigan tashqi frazeologiyalash jarayonida paydo bo'ladigan leksik-sintaktik idiomalar: Welche gibt es noch. • Qanaqa bo'lsa ham.

2. Frazeosxemalar va frazeomodellar: Wie kann er gewinnen! • (so'zma-so'z. U qanday qilib yutishi mumkin!) U yuta olmaydi!

3. Kommunikativ frazemalar yoki kommunikemalar: Wie so?! • <Xo'sh> Qanday?!; Es wie es geh! • Nima bo'lsa, bo'lsin!

4. Idioma – ritorik savollar: Wie wenn, als ob (+ Konj.), wie wenn (als ob) du das selbst nicht wußtest! • Sen buni bilmaysanmi!

5. Idioma – nutq formulalari: nemis tili ambivalent frazeologik birligi Das ist ein Hammer! - 1. bu juda qo'rqinchli; ko'z ko'rib, qo'loq eshitmagan; bu juda dahshatli; bu zo'r-ku! 2. bu ajoyib!

6. Turg'un kirish qurilmalar: <...> Wenn das Wort eine Brücke wär' - dann! va Wenn man sich auf das Wort verlassen konnte! (so'zma-so'z. qaniydi, so'z ko'prik bo'lsa edi!) – agar so'zlanga ishonish mumkin bo'lsa va b. <...>

7. Frazeologiyalashgan yordamchi so'z turkumlari (predloglar, bog'lovchilar, yuklamalar): <...> hervor, unter (D) (so'zma-so'z. o'sha yerdan, tagidan) - tagidan...; dadurch, daß. (so'zma-so'z. yordami bilan) - tufayli; da., well., in Anbetracht dessen, daß. (so'zma-so'z. chunonchi, inobatga olgan holda) – sababli; statt dessen (so'zma-so'z. uning o'rnida) - o'rnida.

Z.R. Agleyevaning fikricha, sintaktik frazeologiyalashish “formal va grammatik jihatdan so'z birikmasi va gaplarga teng bo'lgan hamda individual muqimlik (shu bilan birga, alohida joylashganligi, ba'zida idiomatiklik bilan uyg'un tarzda) yoki tipologik muqimlik, ya'ni bir xil, seriyali, strukturaviy va semantik jihatdan bir tartibli qurilmalarning qatorini birlashtiruvchi tartib turi chegaralari doirasidan turg'unlikka ega bo'lgan birliklarning frazeologik ma'nosini yaratish jarayoni” sifatida tushuniladi (Agleyeva, 2016, 17).

V. L. Arxangelskiy, frazeologik birliklarni o'rganib chiqib, “ular so'z birikmalarining, shunday deb nomlangan predikativ so'z birikmalar va turli gaplarning grammatik tuzilishiga ega bo'lishini” dalillarini keltirib isbotladi (Arxangelskiy 1964, 73). Shu jihatdan V.L.Arxangelskiy ilmiy asarlarida taklif qilingan, frazeologik birliklarning har xil turlarini ajratuvchi batafsil grammatik tasnifi sintaktik frazeologiyasi uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Keltirilgan tasnifning o'ziga xosligi shundan iboratki, u frazeologik birliklarning katta qismini qamrab olgan bo'lsa-da, ammo uning asosida grammatik-sintaktik mezon bo'lishi sababli to'liq tizimli tasavvurni bermasligidan iborat. V.Yu.Melikyaning ta'kidlashicha, “yanglishish ushbu muammoni hal qilishga yondashuvning bir tomonlamalik, cheklanganlikdan iborat” (Melikyan V. Yu., 2004).

Shunday qilib, ushbu lisoniy birliklarni tadqiq qilish tarixi 16 asrga borib taqalsada, biroq hanuzgacha umumiy frazeologiya nazariyasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Olimlar orasida frazeologik birlikning ta'rifi, uning kategorial belgilari to'g'risida hamfikrlik yo'q. Frazelogiyani, uning ayrim jihatlarini o'rganish bir me'yorda bo'lmasligi (ko'pincha leksik frazeologiya o'rganilgan, morfologik va sintaktik frazeologiyaning tadqiqotlari juda kam), hamda umumiy frazeologiya, tilshunoslik sohasi sifatida, nazariyasining aniq bir tizimga solinganligi uni o'rganish lozimligidan dalolat beradi. Tilning frazeologik tizimiga tegishli lisoniy birliklar o'z leksik tarkibi bo'yicha bir xil emas, chunki deyarli har qanday til sathining (fonetik sathdan tashqari) birliklari frazeologiyalashishga (to'g'ri kelishi) duchor bo'lishi mumkin.

Frazeosxema, frazeologiyalashgan sxema yoki frazeologiyalashgan sintaktik konstruksiya mantiqan faqat ularning namunalarini (strukturaviy sxemalar, mavhum modellar) bildiradi, belgilaydi. Erkin strukturaviy modellar ularga binoan qurilgan indifferent sintaksis gaplar bilan taqqoslangan namunadagi gaplarga muvofiq quriladi.

Frazeologik modellar (frazeosxemalar) asosida bo'lgan frazeologik qurilmalar turlicha “leksik to'ldirilishlar”ga yo'l qo'yiladi. Bunda ma'noning “frazelogiyalashishi”

ushbu model bo'yicha tuzilgan barcha aniq qurilmalar uchun umumiy hisoblanadi. Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi frazeologiyalashgan strukturali gaplarning ushbu turdagi frazeologiyalashishi etimologik jihatdan so'roq olmoshlarning olmosh-predmet o'zaro nisbatini siljishi tufayli amalga oshiriladi. Ushbu holatda olmosh so'zlar modal-baholovchi ma'nolarni ifodalaydi. Bunda ushbu ravishlarning ko'chma ma'nolari o'rtasidagi farqi ko'pincha kuchsizlantiriladi.

Shunday qilib, sintaktik frazeologiya sintaktik frazeologiyalashgan birliklarning har xil turlari o'z ichiga oladi. Sintaktik frazeologik birliklarning zamonaviy tipologiyasi to'liq tarzda V.Yu.Melikiyanning ishlarida o'z aksini topgan. Olima frazeologiyalashgan strukturali gaplar to'rtta turkumga ajratiladi: kommunikemalar (so'z-gaplar), frazeosintaktik sxemalar (frazeosxemalar), turg'un modellar va turg'un birikmalar.

Frazeologiyalashgan strukturali gaplarni, hamda frazeologik birliklarning boshqa turlarini hosil qilish uchun avtomatizm va nutq tejamkorlik jarayonlari katta ahamiyatga ega. Ularning voqelanish va o'zaro munosabatlari natijasida aktuallashuv hodisasi tufayli nutqning erkin birikmalari erkin bo'lmagan, ya'ni turg'un birikmalarga aylanadi. Ushbu faollashuv lisoniy birlikning turg'unligi, barqarorligi uchun asos bo'lib xizmat qiladi va uning semantik va grammatik o'zgarishlarini belgilaydi" (Lapteva, 1976, 124).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Аглеева, З. Р. Фраzeологизированные конструкции в разноструктурных языках / З. Р. Аглеева. – М.: КНОРУС; Астрахань: Астраханск. гос. ун-т, 2016. – 242 с.
2. Архангельский, В. Л. Устойчивые фразы в современном русском языке. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии / В. Л. Архангельский. – Ростов н/Д: Изд-во Рост. ун-та, 1964. – 315 с.
3. Меликян, В. Ю. Словарь экспрессивных устойчивых фраз русского языка. Фраzeосхемы и устойчивые модели / В. Ю. Меликян. – М.: Флинта: Наука, 2016a. – 336 с.
4. Розенталь, Д. Э. Словарь-справочник лингвистических терминов: пособие для учителя / Д. Э. Розенталь, М. А. Теленкова. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: Просвещение, 1985. – 399 с.
5. Bazarova, S. S. (2022). Li Xe Jo asarlarida gender tenglik munosabatining ilgari surilishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 180-188.
6. Shuxratovna, B. S. (2022). Koreys adibasi pak van so ijodining o 'ziga xosligi xususida. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 56-59
7. Эшимова, Ш. К. (2022). Personifikatsiya orqali obrazning yaratilishi. *Международный журнал искусство слова*, 5(4).
8. Eshimova, S. K. (2022). Koreys badiiy adabiyotida personifikatsiyaning ifodalanishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 356-364.
9. Баёнханова, И. Ф. (2021). Koreys tilida somatik frazeologizmlarning ifoda ma'nosiga ko'ra turlari. *Международный журнал искусство слова*, 4(2).